

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TAHLILI.

*Ergashev Olloyor Furqat og'li*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali assistenti*

*[colloyor@mail.ru](mailto:colloyor@mail.ru)*

---

*Zaripov Komiljon Zafar O'g'li*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi*

*[zaripovkomiljon83@gmail.com](mailto:zaripovkomiljon83@gmail.com)*

---

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy ovqatlanish korxonalarida xarajatlar hisobi va tahlili bo'yicha fikr mulohazalar bayon etilgan va ovqatlanish korxonalarida xarajatlar hisobini boshqarish bo'yicha malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Xomashyo sarfi, Asosiy vositalarni tasniflash, Kamayishlarni hisobga olish, Buxgalteriya hisobi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida xarajatlar hisobini tahlil qilish ularning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon korxonada resurslaridan oqilona foydalanish, xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, mahsulot tannarxini aniq hisoblash, hisob-kitoblarni to'g'ri amalga oshirish, kamayishlarni oldini olish va foydani oshirish imkonini beradi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida xarajatlari quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

**Mahsulot va xomashyo xarajatlari:** Bu asosiy xarajatlar bo'lib, xomashyo (masalan, go'sht, sabzavot, ziravorlar va boshqalar) va tayyor mahsulotlar uchun sarflangan mablag'larni o'z ichiga oladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida turli holatdagi xomashyodan foydalaniladi. Shuning uchun go'sht, parranda, balig, kartoshka, sabzavotlar uchun holatni moslaydigan koeffitsientlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich asosiy hisoblanadigan mahsulot holatining chiqish me'yoriga nisbatan boshqa holatning

chiqishme'yori bo'yicha hisoblanadi. Bu xarajatlar ovqatlanish korxonalarini uchun muhim hisoblanadi. Bu xarajatlarni qanchalik darajada oshirsak foydamiz ham shunchalik darajada oshadi. Bu xarajatlarni tahlil qilishda ovqatlanish korxonalarini ularni to'g'ri sarflanishiga e'tibor qaratishi kerak. Agar ularni sarflashda kamchiliklar yuz bersa Ovqatlar sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu korxonaga foydasiga zarar keltirishi mumkin. Shuning uchun ovqatlanish korxonalarida xomashyo sarfi muhim ahamiyatga ega. Umumiy ovqatlanish korxonalarida turli holatdagi xomashyodan foydalaniladi.

**Mehnat xarajatlari:** Ovqatlanish korxonalarida mehnat haqi xarajatlari umumiy biznes xarajatlarning muhim qismini tashkil qiladi. Ishchilarning asosiy maoshi: Ovqatlanish korxonalarida Oshpazlar, ofitsiantlar, barmenlar, kassirlar, va boshqa xodimlarning asosiy ish haqlari beriladi. Ularning ish haqisi Ish stajiga, malakasiga va lavozimiga qarab o'zgaradi. Agar xodimlar kechki smenalar, dam olish kunlari yoki bayram kunlarida ishlasa qo'shimcha ish haqilar to'lanadi. Xodimlar yaxshi xizmat ko'rsatsa yoki sotuv hajmini oshirsa ularga mukofotlar beriladi. Bu esa ovqatlanish korxonalarida mijozlar sonini oshirishi va daromadning ko'payishiga olib keladi. Ovqatlanish korxonalarida mehnat haqi xarajatlari odatda umumiy daromadning 20-35% qismini tashkil qiladi, bu biznes turi va xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni boshqarish muhim rol o'ynaydi, chunki u korxonaning daromadli bo'lishiga ta'sir qiladi.

**Kommunal xizmatlar:** Elektr energiyasi, gaz, suv va issiqlik xarajatlari. Bu xarajatlar ham korxonaning muhim xarajatlariidan biridir. Chunki kommunal to'lovlar xarajatlarni amalga oshirmasak. Ish faoliyatini to'xtatishga olib keladi. Bu esa korxonaga faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish uskunalari va inventar xarajatlari: Oshxonaga uskunalari, idish-tovoqlar va boshqa asbob-uskunalarini xarid qilish yoki ta'mirlash. Ovqatlanish korxonalarida oshxonaga uskunalari va idish-tovoqlar doimo yangicha uslubda bo'lishi kerak bu korxonaning ichki madaniyati go'zalligini bildiradi. Bu esa mijozlarning ortishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

**Marketing va reklama:** Restoran, kafelarni reklama qilish uchun ketadigan xarajatlar. Reklama xarajatlari har bir korxonaga faoliyati uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan birga restoranlar uchun ham reklama xarajatlari muhimdir.

**Administrativ xarajatlar:** Menejment va umumiy boshqaruv xarajatlari. bu korxonaning umumiy faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladigan xarajatlar bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq emas. Boshqaruv xarajatlari korxonaning samarali boshqaruv tizimini yaratish va faoliyatini davom ettirish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Ovqatlanish korxonalarida davr xarajatlarini tahlil qilish** — bu korxonaning faoliyati davomida sodir bo'ladigan xarajatlarning samaradorligini baholash, ularni optimallashtirish va rentabellikni oshirish uchun muhim jarayondir. Tahlil qilishning asosiy maqsadi — xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbatni tushunish va ushbu ma'lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilishdir.

**Ovqatlanish korxonalarida mahsulotlar kamayishini tahlil qilish** Mahsulotlarni tashish, saqlash va chiqarishda omborlarda mahsulotlarning kamayishi namoyon bo'ladi. Kamayish 2 xil ko'rinishda bo'ladi: me'yorlangan (tasdiqlangan normalar asosida tabiiy kamayishi, to'kilish, qurish, sinish) va me'yorlanmagan (kamomadlar va me'yordan tashqari kamayishi). Yo`lda va saqlashda me'yorlangan kamayish. Bunday turdagi kamayish tashishda va saqlashda sharoitlar buzilmagan holda, fizikaviy, ximiyaviy jarayonlar tasirida mahsulotning hajmi va vaznidagi tabiiy kamayishdir. Mahsulot tashib keltirish va saqlash davomida hajmi kamayishi, to'kilishi, qurishi mumkin. Tabiiy kamayish normasi har bir masalliqda sharoitga qarab ishlab chiqilgan va haqiqiy vazniga qarab foiz miqdorida belgilangan. Tabiiy kamayganlik normasini hisobdan chigarib tashlash faqat yetishmovchilik haqiqatan sodir bo'lgandagina amalga oshiriladi. Tabiiy kamayish moddiy javobgar shaxs hisobidan faqat tasdiqlangan norma ko'rsatkichlariga tayanib chiqarib yuboriladi. Omborda o'lchanib qabul qilinmaydigan va saqlanadigan mahsulotlarga, sinish, buzilish, sifatining pasayishi belgilangan mahsulotlarga, omborning umumiy aylanmasida ko'rsatilgan, ammo

omborda saqlanmagan (tranzit \_jarayonlar) mahsulotlarga nisbatan tabiiy kamayish normalari qabul qilinmaydi. Mahsulotlar yoqlamasida buxgalteriya bo'limi ishlab chiqqan va korxonalar rahbari tasdiqlagan hisob-kitoblar asosida har bir mahsulot uchun tabiiy kamayish hajmi belgilanadi.

### **Ishlab chiqarishda va tayyor mahsulotni sotishda hisobni olib borish**

Umumiy ovqatlanish korxonasi ko'zda tutilgan taomlar xilma-xilligini inobatga olib, iste'molchilar talabiga asosan o'z faoliyatini tashkil qiladi. Ushbu faoliyatni nazorat qilish hisobning asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari hisob: - ishlab chiqarishda xomashyoning mavjudligi, kelib tushishi va ro'yxatdan chiqarilishini, ratsional ishlatishni ta'minlash; ishlab chiqarilgan va sotib olinadigan mahsulotlar uchun narxlarni to'g'ri shakllantirish va ularga rioya qilishni nazorat qilish; tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo sarfini nazorat qilish; xomashyo, yarimfabrikatlar va tayyorlangan taomlar yoqlamasini vaqtida sifatli o'tkazish; faoliyat asosida kelib tushadigan yalpi daromadni to'g'ri hisoblash uchun xizmat qiladi. Umumiy ovqatlanish korxonasining tovar aylanmasi ikki qism ishlab chiqarilgan mahsulot aylanmasi va sotib olingan tovarlar aylanmasidan tashkil topadi. Tovar aylanmasida asosiy qismni ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashkil qiladi va sotib olingan tovarlar xilma-xilligini kengaytirish uchun qo'llaniladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar quyidagilardan tashkil topadi: tushlik mahsulotlar (birinchi, ikkinchi, uchinchi taomlar); issiq va sovuq gazaklar, kulinar mahsulotlar, yarim fabrikatlar, qandolatchilik mahsulotlari, korxonada ishlab chiqarilgan spirtsiz ichimliklar, issiq ichimliklar, sut va sut mahsulotlari, pishirilgan tuxum, meva, uzum, poliz, sitrus mevalari (tushlik mahsulotlar taomlar bilan, qolgan holda barcha mahsulotlar kilogramm, dona, litrlarda hisoblanadi). Sotib olinadigan mahsulotlarga kulinar ishlov berilmaydigan mahsulotlar - non va non mahsulotlari (taom narxiga kiritilgan holda), qandolatchilik mahsulotlari, spirtsiz ichimliklar kiritiladi. Ishlab chiqarilgan va sotib olingan mahsulotlarni to'g'ridan to'g'ri aholiga yoki boshqa iste'molchilarga sotish bilan chakana tovar aylanmasi shakllanadi. Ishlab chiqarilgan va sotib olingan mahsulotlarni boshqa korxonalar, chakana savdo korxonalariga sotish bilan

ulgurji Tovar aylanmasi shakllanadi Chakana a ulgurji tovar aylanmasining summasi yalpi Tovar aylanmasini hosil qiladi. Yalpi tovar aylanmasi korxonaning to'liq ishlab chiqarish va savdo faoliyatini tavsiflaydi va ustamalar bilan shakllangan narxlarda hisoblanadi

**Korxonada moddiy-texnika ta'minoti vositalarini hisobga olishning vazifalari tahlil qilish.** Umumiy ovqatlanish korxonalarini zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlash xodimlarning ish unumdorligi, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, xizmat sifatining oshishi, faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichlari oshishi ta'minlanadi. Asosiy vositalarning tub xususiyati, ularning uzoq muddat xizmat qilishi, eskirmasligi va eskirishi korxonaning amortizatsiya chiqimlari bilan hisob-kitob qilinishidir. Korxonaning asosiy vositalariga eng kam ish haqining 50 martalik hajmiga narxi teng keluvchi va xizmat muddati 1 yildan oshadigan vositalar kiradi. Eng kam ish haqining 50 martalik hajmidan narxi bo'yicha kam bo'ladigan, xizmat muddatining farqi bo'lmaydigan yoki narxiga bog'liq bo'lmay, xizmat muddati 1 yildan kam bo'ladigan mahsulotlar asosiy vositalarga kirmaydi va kam baholi yoki tez eskiradigan buyumlar sifatida hisobga olinadi. Asosiy vositalar, kam baholi, tez eskiradigan buyumlarni hisobga olish quyidagilarni ta'minlashi kerak: vositalarni saqlash va ishlatish joylarida ularning saqlanishini nazorat qilish; vositalar harakati bo'yicha hujatlarni o'z vaqtida, to'g'ri rasmiylashtirish; ta'minotning tasdiqlangan me'yori asosida vositalarning haqiqiy mavjudligini nazorat qilish; amortizatsiya chegirmalarini to'g'ri hisoblash va maqsadli yo'naltirish; asosiy vositalarni yo'q qilish natijalarini aniq hisoblash va hisobda aks ettirish Hisobning asosiy vazifalaridan yana biri asosiy vositalar, kam baholi, tez eskiradigan vositalardan to'g'ri va samarali foydalanishni nazorat qilishdir.

**Xarajatlarni hisobga olishning asosiy ko'rsatkichlari Ishlab chiqarish xarajatlarini ajratish:** Mahsulot tayyorlashga bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar (masalan, xomashyo) va umumiy xarajatlarni (kommunal xizmatlar, ma'muriyat) ajratib hisoblash. Ishlab chiqarish xarajatlarini ajratish deganda, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlarni ma'lum mezonlar asosida tasniflash tushuniladi. Bu

tasniflash xarajatlarni boshqarish, tahlil qilish va samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Normativ asosda hisoblash:** Har bir taomning tannarxini oldindan normativlar asosida hisoblash va real xarajatlarni kuzatish. Normativ asosda hisoblash – bu ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni oldindan belgilangan me'yorlar (normativlar) asosida hisoblash usuli. Bu usul korxonaning ishlab chiqarish jarayonidagi resurslardan samarali foydalanishini ta'minlash, xarajatlarni nazorat qilish va mahsulot tannarxini oldindan aniqlash uchun qo'llaniladi.

**Kuzatib borish va nazorat qilish:** Har kunlik, haftalik va oylik hisobotlarni tayyorlash. bu korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan jarayon. Bu turli vaqtlardagi hisobotlar ishlab chiqarish samaradorligini, xarajatlarni va umumiy faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilishga yordam beradi.

**Avtomatlashtirish:** Ovqatlanish korxonalarida xarajatlarni avtomatlashtirish, resurslarni samarali boshqarish va daromadni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni anglatadi. Bu usul qo'lda bajariladigan operatsiyalarni minimallashtirish va inson xatolarini kamaytirishga qaratilgan. Xarajatlarni avtomatlashtirishni asosan quyidagilardan foydalanish muhim hisoblanadi. Moliyaviy oqimlarni boshqarishni soddalashtirish, Resurslarni tejash va isrofgarchilikni kamaytirish, Ish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish, Tahlil va hisobotlarni tezkor tayyorlash imkonini yaratish. Asosiy avtomatlashtirish usullari: Buxgalteriya va moliyaviy hisob tizimlari 1C: Buxgalteriya yoki SAP kabi dasturiy ta'minotlarni joriy etish. Ushbu tizimlar xarajatlar, daromadlar va foyda hisobotlarini avtomatik hisoblab beradi. Qarz va kredit hisobi, soliq to'lovlari hamda boshqa xarajatlarni integratsiyalash.. Xaridlarni avtomatlashtirish: ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning) orqali xomashyo va mahsulot sotib olish jarayonlarini avtomatlashtirish. Yetkazib beruvchilar bilan bog'lanish. Narxlarni taqqoslash va shartnomalarni boshqarish. Mahsulotlarni avtomatik buyurtma qilish. Ovqatlanish jarayonini boshqarish POS tizimlari (Point of Sale) orqali

xaridor buyurtmalarini qabul qilish va nazorat qilish. Buyurtmalarni oshxonaga avtomatik yuborish. Oziq-ovqat tayyorlash va xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish. Raqamli menyu va onlayn buyurtma tizimlari (masalan, iiko, R-Keeper kabi dasturlar). Ishchi kuchini boshqarish Ishchilarning mehnat vaqtini kuzatish uchun HRM tizimlari (Human Resource Management). Ish haqi hisob-kitobini avtomatlashtirish. Ish smenasini boshqarish. Energiya va kommunal xarajatlarni avtomatlashtirish IoT (Internet of Things) qurilmalari yordamida elektr energiyasi, suv va gaz iste'molini avtomatik nazorat qilish. Elektr jihozlarni avtomatik boshqarish. Yoritish tizimlarini optimallashtirish. Korxonaning faoliyatiga mos keladigan avtomatlashtirish usullarini tanlash. Masalan, kichik ovqatlanish korxonalarida uchun oddiy POS tizimlar, katta restoranlar uchun kompleks ERP tizimlari. Ovqatlanish korxonalarida xarajatlarni avtomatlashtirish zamonaviy raqobat muhitida muvaffaqiyat kalitidir. Bu jarayon nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki sifatli xizmat ko'rsatishga, mijozlarning qoniqishini oshirishga va foyda ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Avtomatlashtirish texnologiyalari korxonalariga kelajakdagi ehtiyojlarini prognoz qilish va strategik rejalashtirishda yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **Maxmudov, M.** (2017). *Umumiy ovqatlanish korxonalarida uchun iqtisodiy va moliyaviy tahlil usullari*. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot nashriyoti.
2. **Jumayev, U. Z., & Murodov, A. I.** (2020). *Iqtisodiy tahlil va boshqaruv: Ovqatlanish korxonalarida samarali boshqaruv usullari*
3. **Tursunov, T. M.** (2018). *Restoranlar va kafe tarmog'ida moliyaviy tahlil: O'zbekiston sharoitida*
4. **Asatov R.U.** (2007) *Umumiy ovqatlanish korxonalarida hisob kitob va kalkulyatsiya.pdf* O`quv qo`llanma
5. **Stone, M., & Woodcock, N.** (2016). *Strategic Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson Education.
6. **Qodirov, I.** (2019). *Umumiy ovqatlanish korxonalarida va ularning iqtisodiy tahlili*. Toshkent: Xalqaro tahlil va tadqiqot nashriyoti.
7. **Bo'riyev, F.** (2015). *Moliyaviy tahlil va biznesda xarajatlarni boshqarish*. Toshkent: Ikhtiyoriy nashriyoti.
8. **Sultonov, T.** (2020). *Korxonalarida xarajatlarni tahlili va boshqaruvi*. Toshkent: Iqtisodiyot va statistika nashriyoti.